



AYOLLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH DUNYO HAMJAMIYATINING BURCHIDIR

Oqbo'tayev Ozodbek Davron o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar inistituti, Agrobiznes va
raqamli iqtisodiyot fakulteti,
Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi
Telefon: +998 (88) 898-69-95
E-mail: ozodbekoqbutayev81@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ayollar huquqlarini tarixiy kelib chiqishi rivojlanishi milliy va xalqaro huquqda himoya qilinishi va ayollar huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar va ayollar huquqlarini himoya qilishdagi dolzarb muammolar, shuningdek, gender tenglik muammolari haqida ma'lumot berish maqolaning asosiy maqsadidir.

Kalit so'zlar: Bronza davri, matriarxat, patriarxat, ayollarning sotsial siyosiy uyushmalari, zo'ravonliksiz yashash huquqi, ta'lim olish huquqi, ishlash huquqi, gender tenglik, ijod erkinligi.

Abstract: The purpose of this article is to provide information about the history of women's rights, the development of national and international law, and international organizations that protect women's rights, as well as gender equality issues.

Keywords: Bronze Age, matriarchy, patriarchy, women's socio-political associations, right to live without obligation, right to education, right to work, gender equality, creativity.

Аннотация: Целью данной статьи является предоставление информации об истории прав женщин, развитии национальной и международной правовой защиты, международных организациях, защищающих права женщин, а также вопросах гендерного равенства.

Ключевые слова: бронзовый век, матриархат, патриархат, женские общественно-политические объединения, право на жизнь без обязательств, право на образование, право на труд, гендерное равенство, творчество.

Ayollar huquqlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari.

Ayollar huquqi qadimdan boshlab hozirgi kungacha dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Uning nomi aynan shunday atalmagan bo'lsa-da, mazmuni jihatidan hozirgi kunga ham mos bo'lgan. Ayollar, xotin-qizlarning huquqi va erkinlikarini shakllanish jarayoni uzoq davom etgan. Bronza davrigacha bo'lgan matriarxat davrida, davlatlar paydo bo'lib rivojlana boshlaganida, davlatlarning ichki siyosatida, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va boshqa jarayonlarda bu masala namoyon bo'lgan.

Har bir narsa tarixga borib taqalganidek, ayollarning huquqlari ham qadimgi zamonlardan boshlanadi. Eramizdan avvalgi, ya'ni matriarxat davrida ayollarning o'rni erkaklarnikidan ham yuqori bo'lganligi tarixdan ma'lum. Ammo nima uchun? degan savolga javob beradigan bo'lsak, birinchi navbatda, ayollar oilaning boshlig'i sifatida qaralgan. Ular oilaning moddiy ta'minoti, farzandlarni tarbiyalash va



umuman olganda qabilalarning boshliqlari sifatida ibtidoiy jamoa tuzimida vazifalari bo'lgan. Ammo nima uchun matriarxatdan kechildi? Avvalambor, mezolit davridan boshlab, hayvonlarni ovlash boshlandi. Ovlash zaruriyati natijasida mehnat qurollari vujudga keldi. Aniqki, ayollar biologik jihatdan ham erkaklarga nisbatan o'z hisoblanadi, mehnat qurollari takomillashuvi va ularning qo'pollashuvi natijasida esa ularga mos bo'lmagan vazifalar ularga og'irlik qilgan va shuning natijasida erkaklarning oiladagi roli ortib boravergan va patriarxat davri boshlangan.

Zamon rivojlana borgan sari, ayollarning huquqlari tobora cheklana borgan. Bunga misol tariqasida miloddan avvalgi II ming yillikda tashkil topgan Yunoniston, yoki miloddan avvalgi VIII asrda tashkil topgan Rim davlatidagi qonunchilikni misol qilib olsak bo'ladi. Eng muhim davlat hayotiga oid bo'lgan masalalarni hal qilish vakolatiga ega bo'lgan xalq majlislarida faqat 25 yoshga to'lgan erkaklarga ishtirok eta olgan, boshqa siyosiy lavozimlarga ham ayollarning saylanishi cheklangan. Ayollar past tabaqali inson sifatida qaralgan. Bunga isbot tariqasida miloddan avvalgi I asrda yashab o'tgan mimik shoirning "Xudo ayolni yaratib, muammolarni yaratdi". Ya'ni ayolga ongi erkaklarnikidek rivojlanmagan jonzotga qiyoslangan holda muomala qilinagan, O'rta asrlarda ham bu ahvol yaxshilanmagan. Ayollar turli minataqalarda huquqlari cheklangan va ularga turlicha qaralgan. Islom dinining kirib kelishi va boshqa dinlarning ham rivojlanishi natijasida har bir din o'z qarashlariga ko'ra ayollarga munosabat bildirgan.

X asrda xristian cherkovi tomonidan ayollarning majburiyatlari belgilanib berilgan va ulardan eng asosiysi, bu uyda o'z farzandlarini tarbiyalash va turmush o'rtog'iga itoat etish hisoblangan. Ya'ni "Ayollarning joyi bu-uy" degan ibora keltirib chiqarilgan. Vaqt o'tgan sari, munosabat o'zgargan. Albatta, ammo huquqlar cheklanib qolavergan. Yangi davrga o'tishdan oldin ham mashhur olimlar tomonidan ayollarga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan: "Xudo ayollarni faqat erkaklarni bezatib turishi uchun yaratgan" Volter (1694- 1778). Ammo ularga aksincha, ijobiy tomondan yondashgan olimlar ham yo'q emas, dunyoning turli mintaqalarida bu qarashlar turlicha bo'lgan, ayniqsa, Yevropa va Osiyo mamlakatlari madaniyati bunda alohida ahamiyat kasb etgan. Rivojlangan o'rta asrlarda ham erkaklarda mavjud huquqlar ayollarga berilmas edi. Bunga misol qilib, saylov, ta'lim olish, meros olish, mehnat qilish, ijod va faoliyat erkinligi, so'z erkinligi kabilar misol bo'la oladi.

Fransiyada turmushga chiqqan ayollarning hayoti ularning umr yo'ldoshlariga bog'liq bo'lib qolgan. Ular shartnomalar imzolashi, o'z nomiga qarz yoki har qanday turdagi pul olishi, sudlarda guvoh sifatida ishtirok eta olishi mumkin bo'lmagan.



Yangi davr. Ayollar o'z haq-huquqlarini himoya qilib chiqqan eng mashhur harakatlar davri.

XIX asrning oxiri XX asrning boshiga kelib, xotin-qizlar ular erkaklardan kam emasligini, gender tengligi kabi g'oyalarni ilgari surish taklifini keltirib chiqarishgan. Eng katta harakatlardan biri bu "Suffragistlar" harakati deb nomlangan Buyuk Britaniyada bo'lib o'tgan kurash hisoblanadi.

"Suffrage" - so'zi fransuzcha bo'lib, saylov huquqi degan ma'noni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, suffragistlar bu saylov huquqi uchun kurashgan ayollardir. Harakatning boshlanishiga nima sabab bo'ldi? Birinchidan, Yangi Zelandiyada 1893-yil yangi qonun qabul qilindi, va ushbu qonunga ko'ra 21 yoshdan oshgan barcha ayollarga saylov huquqi berildi. Ikkinchidan, Yangi Zelandiyaga bu huquq berilib, Angliyaga berilmasligi ayollarning g'azabini keltirdi va 1903-yil Emily Pankhurst boshchiligida ayollarning saylov huquqi uchun kurashadigan "Ayollarning sotsial-siyosiy uyushmasi" vujudga keldi. Bu paytda Buyuk Britaniyani konservatorlar boshqarar, va ularga bu masalani taklifini berish qiyinchiliklarni vujudga keltirar edi, 10 yil konservatorlarning boshqaruvidan keyin liberallarning kelishi aniq edi, shuning uchun ham ular liberallarga ta'sir o'tkazishga harakat qilishdi. Suffragistlar orasida turli qatlam vakillarini ichiga olgan ayollar tashkil qilar edi, ularning orasida uy bekalaridan boshlab o'qituvchilar, yuqori daromadli kasb egalari va hatto yagona yurist ayol- Emily Pankhurstning qizi, Christabell Pankhurst ham bor edi. Ular dastlab o'z huquqlari uchun kurashni tinch yo'l bilan boshlashdi. Hokimiyatga kelish arafasida turgan liberallar orasida Uinston Cherchill ham bor edi. Ayollar unga bu masalani kiritish taklifini qo'yishni partiyaning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblashligini so'ragan taqdirda ham, Cherchillning o'zi ham shuning tarafdori bo'lgan bo'lsa ham, hali ayollarning saylov huquqiga ega emasligi, va agar bu masala ko'tarilsa-yu qo'llab quvvatlanmasa, liberallar yutqazishi mumkin, deb hisoblab masala kiritilmagan.

Nihoyat, 1905-yil liberallar saylovlarda yutib chiqishdi, lekin suffragistlarning takliflari ko'rib chiqilmadi. Ular atayin vaqtni kerak emas masalalar bilan uzaytirishar, ularning masalasiga kelganda esa, xuddi vaqt yetmaganidek, tashlab qo'yishar edi. Buni tushunib yetgan suffragist ayollar tinch yo'l orqali erishib bo'lmasligini, endi boshqa yo'llar izlash kerakligini anglagan holda, Westminster (parlament) binolariga kirib, ularning majlislarida o'z fikrlarini ifodalamoqchi bo'lishdi. Ammo ularni binoning darvozalaridan ichkariga kirishiga ruxsat berishmadi. O'z haq-huquqlarini va qonunlarni bilgan Christabell Pankhurst ichki ishlar xodimiga hujum qilish oqali, o'zining murojaatlarini yetkazish mumkinligini



tushunib yetdi va shunday bo'ldi ham. Birin-ketin ayollar huquqbuzarliklar qilib, sudning qaroriga asosan ozodlikdan mahrum etildi. Ammo ular shu orqali, gazetalarda o'zlarining murojaatlarini nafaqat parlament deputatlariga, balki xalqqa ham yetkazishdi. Ularning asosiy shoriga mos ravishda "Gapda emas, amalda" kurash qanday bo'lishini ko'rsatib berishdi. Qamoqda ham ular baykotlar e'lon qilar, ularning qamoqdan chiqishi esa katta ziyofat bilan kutib olinar edi. Shu tariqa ularning safi kengaya bordi. Ammo shuncha harakat deputatlarning fikrini o'zgartira olmadi. Saylov huquqi ularga berilmadi. Oradan deyarli 10 yil o'tar ekan, birinchi jahon urushi arafasida suffragistlar harakati to'xtatildi.

Urush nihoyasiga yetgach esa, "Xalq vakilligi to'g'risidagi 1918-yilgi qonun" qabul qilindi. Unga ko'ra, 30 yoshdan oshgan va mulk senzi bilan cheklangan ayollarga saylov huquqi berildi. Ammo, oradan 10 yil o'tkandan keyin ayollar "Xalq vakilligi to'g'risidagi 1928-yilgi qaror" ga ko'ra 21 yoshdan oshgan barcha ayollar saylov huquqiga ega bo'ldi. Ya'ni bundan shunday xulosa chiqazish mumkinki, maqsadga erishish qanchalik qiyin bo'lmasin, harakat bilan unga erishish imkoniyati bor, buning uchun xohish, kuchli matonat va ba'zida vaqt kerak bo'ladi.

Ayollarning huquqlarini himoya qilishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining roli.

Avvalambor shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, Birlashgan Millatlar tashkiloti haqida so'z yuritar ekanmiz, ayollarga nisbatan diskriminatsiyaga barham berish bo'yicha qo'mita, odatda qisqacha qilib "CEDAW" qo'mitasi deb yuritiladi. CEDAW arizalari 23 mustaqil ekspertdan iborat BMT CEDAW qo'mitasi tomonidan nazorat qilinadi. Davlatlar CEDAW qo'mitasiga muntazam ravishda hisobotlarni taqdim etishlari shart. Ushbu hisobotlar qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi va ko'pincha nodavlat tashkilotlarining fikrlarini hisobga olgan holda CEDAWni amalga oshirishni yaxshilash bo'yicha davlatlarga tavsiyalar beriladi. Qo'mitadagi ekspertlari ishtirokchi davlatlar tomonidan saylanadi.

Qo'mita, shuningdek, Konvensiyaning buzilishi to'g'risidagi individual yoki guruh shikoyatlarini ham ko'rib chiqadi. Konvensiyaning jiddiy yoki muntazam ravishda buzilishi bo'yicha tergov o'tkazish vakolatiga ham ega. Bu vakolat 1999-yilda BMT ning 54-sonli maxsus qarori bilan berilgan bo'lib, Bosh Assambleyada qabul qilingan va 2000-yil 22-dekabrda kuchga kirgan Protokol bilan belgilab qo'yiladi. Ushbu protokol tomonlarning o'z xohishlariga ko'ra imzolagan ikkinchi kelishuvi hisoblanadi.

CEDAW qo'mitasi ishtirokchi davlatlarga Konvensiyaning ayrim moddalarini tushunishni osonlashtirish va Konvensiya qanday qo'llanilishini ko'rsatish borasida



tavsiyalar berish huquqiga ega. 2021-yil holatiga ko'ra, Qo'mita a'zo davlatlarga 38 ta turli xil tavsiyalar berib kelgan. Dastlabki o'n yil ichida qisqa va soda bo'lgan tavsiyalar qo'mitaning 1991-yil 10-sessiyasida qabul qilingan qarordan so'ng ancha batafsil va keng qamrovli shaklda tayyorlana boshlandi, shuningdek, aniq vaqtda Konvensiyaning tavsiyalari ishtirokchi davlatlar uchun maxsus qo'llanma bo'lib ham xizmat qila boshladi. Umumiy tavsiyani shakllantirish turli nodavlat tashkilotlar va BMT ning boshqa organlari bilan birgalikda tavsiyanomadagi mavzu bo'yicha qo'mita o'rtasidagi muloqotdan boshlanadi. Keyin tavsiyanoma qo'mita a'zosi tomonidan ishlab chiqiladi, keying sessiyada muhokama qilinadi va qayta ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng, nihoyat, keyingi sessiyada qabul qilinadi.

Qo'mita tomonidan berilgan eng muhim va keng qamrovli tavsiyalardan biri 1991-yil 10-sessiyada qabul qilingan 19-sonli maxsus tavsiyadir. Konvensiyada zo'rvonlik to'g'ridan-to'g'ri qayd etilmagan bo'lsa-da, kamsitilish ta'rifi 19-sonli tavsiyada zo'rvonlikni o'z ichiga olishi haqidagi ma'lumotlar bilan kengaytirilgan, shuningdek, gender tengligiga qarshi qaratilgan zo'rvonlik konvensiya qoidalarini buzish deb hisoblanishi ham nazarda tutilgan. Ishtirokchi davlatlar nafaqat hukumat tomonidan yoki uning nomidan amalga oshirilgan zo'rvonlik, balki ayollarning shaxsiy hayotida ular eng ko'p duchor bo'ladigan kamsitishlarning oldini olishga majburdirlar.

Xulosa: Hozirgi kunda ayollar huquqlarini himoya qilish sohasida ko'plab o'zgarishlar yuz bermoqda, bu hozirgi kunda milliy va xalqaro qonunchilikda aks etib bermoqda. Xususan, hozirgi kunda yurtimizda ayollar huquqlari bo'yicha ombudsman faoliyat yurtib kelmoqda bu milliy qonunchiligimiz rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Xalqaro doirada ham doimiy ravishda xalqaro konferensiyalar o'tkazib kelinmoqda, bu albatta hozirgi kunga kelib o'z natjasini bermoqda shunga qaramay ayollar huquqlarini himoya qilish uzoq yillik kurashlar natijasi o'laroq hamon dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hosken, Fran P., 'Towards a Definition of Women's Rights' in Human Rights Quarterly, 3-jild, 2-jild. (1981-yil may), s. 1–10.
2. Tansiqboyeva.G. Ayollarni diskriminatsiya qilishni bartaraf etish-ularning amaldagi tengligining zaruriy sharti. Ayol huquqi va erkinliklari. -T: Adolat 2002-B.8.
3. Saidov A.X Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar to'plami. T: Adolat 2004. B-44.
4. Saidov A. "Ayollar huquqlari bo'yicha xalqaro milliy qonun hujjatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari" T. 1999 B. 34.



5. Muminov A.R. Tillaboyev M.A. Inson huquqlari va ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro huquqiy himoya qilish. G'G'T. Adolat, 2013. B. 368.
6. Nurillayev, J. Y. (2022). The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks.
7. Qo, J. S. I., & Gulbahor, M. (2023). Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida Tarbiyalanuvchilarni Maktab Ta'limiga Tayorlashning Pedagogik Asoslari. Qo 'Qon Universiteti Xabarnomasi, 8, 98-100.
8. Nurillaev, J. Y. . (2021). Directions To Improve The Activities Of The Karakulchil Sector In Uzbekistan. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(02), 57–62. <https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume03Issue02-11>
9. Ikromjonovna, J. S., & Husanovna, Y. L. S. (2023). Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida Sog 'Lom Ovqatlanishni Tashkil Etish. Образование Наука И Инновационные Идеи В Мире, 34(6), 85-90.
10. Nurillaev, J. (2024, April). The Role of Cluster Education and Science in The Stable Development of Society. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 4, pp. 21-23).
11. Jumanova, S. I., & Mullaboyeva, G. (2023). Bolalarni Maktab Ta'limiga Tayyorlashda Sharq Va G 'Arb Allomalarining Qarashlaridan Foydalanish. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 445-451.
12. Nurillaev, J. Y. (2024). Theoretical and methodological foundations of financing karakul farming in a market economy.
13. Нуриллаев, Р. Я. (1991). Эффективность использования биохимических показателей крови при оценке племенных качеств баранов каракульской породы.
14. Madayev, O., Sobirov, A., Xolmanova, Z., Toshmirzayeva, S., Ziyodullayeva, G., & Shamsiyeva, M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Va O 'Rta Maxsus Ta'lim Vazirligi.
15. Nurillaev, R. Y. (2024). Ensuring food safety in a changing world: challenges and solutions.
16. XOLMANOVA, Z. Ana Sayfa| Hakkımızda| Yayın Kurulu| Yayın İlkeleri| Arşiv| Son Sayı| İletişim| Çıkış Giriş.
17. Нуриллаев, Р. (2023). Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире.
18. SEMPO, Y. E., & KİTABI, B. (2017). Uluslararası Türk Dünyası. 7. Michael McCarthy and Felicity O'Dell." English Idioms in Use"—Cambridge university press.—L.
19. Нуриллаев, Р., & Нуриллаев, Ш. (2023). Повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках.
20. Нуриллаев, Р. (2023). Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы.